


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**A COMPARATIVE ANALYSIS OF CHINESE AND PERSIAN EXPRESSIONS****Tair Akimov***PhD, senior lecturer**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** idioms, proverb, saying, phrase, wise words, winged words, alternative.**Received:** 15.05.24**Accepted:** 17.05.24**Published:** 19.05.24**Abstract:** Every nation collects its life experiences to forward to future generations. Idioms are passed on from generation to generation. Phrases, proverbs, and sayings are formed and learned among the population, and after being generated in the spoken language, they are expressed in written form.

This article compares Chinese and Persian expressions, proverbs, and sayings. Some idioms, proverbs, and sayings can be translated verbatim, and some cannot be understood when translated verbatim. Therefore, we must turn to bilingual dictionaries or interpret historical stories of their origin and find out what they mean and their alternatives.

XITOIY VA FORS TILLARIDAGI IBORALARNING QIYOSIY TAHLILI**Tair Akimov***PhD, katta o'qituvchi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** maqol, matal, ibora, hikmatli so'zlar, qanotli so'zlar, muqobil.**Annotatsiya:** Har bir xalq o'zining kelgusi avlodlariga meros qilib qoldirish uchun o'zida mujassam bo'lgan eng foydali hayotiy tajribalarini jamlab keladi. Bular xalq ichida sayqallanib, tovlanib avlod-dan-avlodga o'tib kelmoqda. Ibora, maqol va matallar xalq ichida tildan-tilga o'tib shakllanadi va o'zlashadi, og'zaki nutqda shakllanib bo'lgandan keyin yozma shaklda ifodalanadi.

Bu maqolada xitoy va fors tillaridagi ibora, maqol va matallarni taqqoslab

o'rganishga harakat qilindi. Ba'zibir maqol va matallarni so'zma-so'z tarjima qilinsa ma'nosini tushunish mumkin, ba'zilarini so'zma-so'z tarjima qilinsa umuman ma'nosini tushunib bo'lmaydi, o'shanda biz qo'sh tillik lug'atlarga murojaat qilishga majburmiz yoki ularning kelib chiqish tarixiy hikoyalarini tarjima qilib, gap nima haqida ketayotganini bilib, ma'nosini aniqlab, muqobilini topish lozim.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КИТАЙСКИХ И ПЕРСИДСКИХ ВЫРАЖЕНИЙ

Таир Акимов

PhD, старший преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: пословица, поговорка, фраза, мудрые слова, крылатые слова, альтернатива.

Аннотация: Каждый народ собирает свой жизненный опыт, чтобы передать его будущим поколениям. Фразеологизмы передаются из поколения в поколение. Фразы, пословицы и поговорки формируются и усваиваются на языке народа, а после образования в устной речи выражаются в письменной форме.

В данной статье сравниваются китайские и персидские выражения, пословицы и поговорки. Некоторые пословицы и поговорки можно перевести дословно, а некоторые при дословном переводе понять невозможно. Поэтому приходится обращаться к двуязычным словарям или переводить исторические рассказы об их происхождении, выяснять, о чем они говорят и их значение.

KIRISH

Fors va xitoy tillari qadimgi tillardan bo'lib, juda ham ko'p maqol va matallar shakllangan. Maqol va matallar tilni rivojlantirishda yozma va og'zaki adabiyotlarda tutgan o'rni juda kattadir. Asrlar mobaynida har bir xalq o'zining kelgusi avlodlariga meros qilib qoldirish uchun maqol va matallarning kelib chiqish hikoyalarini va izohli lug'atlarini tuzib, kelajak avlodlarga qoldirmoqda. Iboralarni hayotiy tirik qomus deyish mumkin, yangi-yangi iboralar shakllanib boraveradi, bularni kelajak avlod o'rganadi va ilmiy xulosalar chiqaradi. Bu hikmatlarni yuz yil, ming yil o'rgansa ham tugamaydigan madaniy merosdir. Ular sermazmun, jonli, ta'sirchan va chuqur ma'noli bo'lib, xalqning urf-odatlarini, udumlarini, xulq-atvorini, turmush tarzi va

tafakkurini aks ettirgan. Shuning uchun barcha qatlamlar kundalik hayotida og‘zaki va yozma nutqda bu boyliklardan keng foydalanib kelmoqda.

ASOSIY QISM

S.G. Mextixanli, S.X. Zaxrai “Fors tilidagi maqol va matallar” nomli maqolasida bunday deb yozadi: “Yozuvchi va shoirlar doimo folklor materialidan keng foydalanganlar, maqol va matallarni she‘rlarga ko‘chirganlar, ularning aksariyati vaqtlaro‘tishi bilan shakllangan. Qanotli so‘zlar yana og‘zaki nutqdanyozma adabiyotlarga o‘tdi, ular o‘qildi va yodlandi. Ular bilan o‘zlarining nutqlarini bezashadi. Eron folklorshunoslarining aksariyati ma‘nolarga alohida e‘tibor berib, maqol va matallarni yig‘ish, to‘plash va lug‘atlar tuzishga kirishgan. Fors tilidagi maqol va matallar haqida shuni aytish mumkinki, bu birliklar fors adabiyotiga – nasr va she‘riyatga kirib bordi. Mashhur fors shoirlari o‘z asarlarida maqol va matallardan foydalanmagani bo‘lmasa kerak. Klassik davr fors adabiyotida ular juda ko‘p va asosan she‘r shaklida uchraydi”.

بان بدان کم نشین که همسر بد

گر چه پاکی تو را پلید کند(سعدی)

Yomon odamlar bilan do‘stlashmang

Toza bo‘lsangiz ham, sizni tortib ketadi.

С дурными не общайся – друг дурной,

Хотя ты и чист, потянет за собой (Саади)

Yozuvchi va shoirlar doim xalq og‘zaki ijodidan keng foydalangan bo‘lib, maqol va matal, ibora, hikmatli so‘zlar she‘rlarida aks etgan va xalq ichiga singib borgan.

Xitoy tilidagi iboralar qadimgi masallar, tarixiy hikoyalar va qadimgi she‘rlarlardan kelib chiqqandir. 冰心一片 bīng xīn yí piàn – so‘zma-so‘z tarjimasi: “*Bir parcha muz yurak*”. *Ya’ni “qalbi toza; vijdonli, pok niyat; mansab, shuhrat va boylikka berilmaslik”*.

作者：王昌龄 Muallifi: Wáng Chānglíng (шеър)

寒雨连江夜入吴，平明送客楚山孤。

洛阳亲友如相问，一片冰心在玉壶

Hán yǔ lián jiāng yè rù wú, píng míng sòng kè chǔshān gū

Luòyáng qīnyǒu rú xiāngwèn, yí piàn bīng xīn zài yùhú。

Tarjimasi: «Qahraton sovuq kunlar ham Vuga yetib keldi, sizlarni kuzatib yolg‘iz qolaman, Lo‘yanga borganlaringda do‘stlar so‘rasa, meni nefrit idishdagi bir parcha muz denglar» (ma‘nosi: yomon vaziyat Vuga ham yetib keldi, Lo‘yangdagi do‘stlar meni qanday u deb so‘rasalar, pok vijdon bilan ishlamoqda, mansab, mol-dunyo va shuhratga berilmagan deb aytinglar).

Misol: 他不为金钱, 地位所引诱, 始终如一地从事教育工作, 可谓一片冰心(王昌龄 Wáng Chānglíng «出自 chūzì» asaridan). Tā bú wèi jīn qián, dì wèi suǒ yǐn yòu, shǐ zhōng rú yī dì cóng shì jiào yù gōng zuò, kě wèi yí piàn bīng xīn –

U pul, mansab uchun emas, doim ta'lim-tarbiya jarayonida pok vijdon bilan ishladi.

Bu ibora qadimgi she'rdan olingan bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilib, ma'nosi haqida tushuncha berilmasa, anglash mushkul. Xitoy tilini o'rganayotgan kishi “*bir parcha muz yurak*” iborasini eshitishi bilanoq «bag'ri tosh» degan salbiy ma'noda tushunishi mumkin, lekin bu ibora ijobiy ma'noda oq ko'ngil, pok niyatli, vijdonli kishilarga nisbatan qo'llaniladi.

Iboralar, hikmatli so'zlar doim insonlarni o'ziga jalb qilib kelgan, ularni tilshunos olimlar o'rganib, jamlab kelmoqda. Maqol va matallarda yo'qolib ketgan rasm-rusm, urf-odat va udumlar aks etkan bo'ladi. Yozuvchilar ijodida qo'llagan maqol va matallar asarni rang-barang qilib ifodalashda, o'quvchilarning diqqat e'tiborini tortishga katta xizmat qiladi. Maqol va matallar qisqa bo'lsada, turli hayotiy voqealar, insonga mansub yaxshi fazilatlarinimadh etadi, niyati yomonlarni har xil obrazlar bilan qoralaydi.

Bu maqolada – Eron va Xitoy xalqlarining kundalik hayotida ko'p uchraydigan maqol va matallarni qiyoslab o'rganish nazarda tutilgan.

火上加油 huǒ shàng jiā yóu – روی آتش روغن پاشیدن

Olovga moy sepmoq; yarasiga tuz sepmoq (подливать масло в огонь).

Bu maqola, biror ishni qila olmay turganda yoki jahli chiqib turganda, “*shu ham qo'lingdan kelmayapdimi? shuni ham qila olmaysanmi?*” deb boshqalarning g'azabini qo'zg'ash uchun aytiladi.

口蜜腹剑 kǒu mì fù jiàn – شهد بر قلب و زهر در دل داشتن; زبان شیرین و قلب زهر آگین داشتن

Tili shaker, dili zahar (на языке мёд, на сердце лёд).

百闻不如一见 bǎi wén bùrú yí jiàn – یک بار دیدن بهتر از صد بار شنیدن *Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshiroq (лучше один раз увидеть, чем сто раз услышать).*

天上无路, 入地无门 tiān shàng wú lù, rù dì wú mén – زمن سخت آسمان دور

Yer qattiq, oston uzoq; (до бога высоко, до царя далеко).

守口如瓶 shǒukǒurúping – هیچ راز فاش نکردن; خاموش ماندن; راز دار بودن

Xitoy tilida, *butilkaning og'zini yopganday yopmoq; sir saqlamoq; og'zini ochmaslik (держат язык за зубами).*

织工家里没布料 zhīgōngjiā lǐ méi bùliào – To'quvchining uyida mato yo'q; 盖房无房住 gàifáng wú fángzhù *Uy quruvchining uyi yo'q.*

سوداگر پنیر در شیشه میخورد; کوزه گر از کوزه شکسته آب میخورد; کفش پینه دوز پاشنه ندارد

Bo'zchi belboqqa yolchimas (сапожник без сапог).

饱汉不知饿汉饥 bǎohàn bù zhī èhàn jī از پیاده از گرسنه خبر ندراد سواره *Qorni to'qning qorni ochdan xabari yo'q* (сытый человек не знает голодного).

Xitoy tilida “qorni to'qning qorni ochdan xabari yo'q” deb berilsa, fors tilida “qorni to'qning qorni ochdan xabari yo'q – otliqning piyoda bilan ishi yo'q” deb berilgan.

Boylar va amaldorlar moddiy jihatdan ortib-tortib yotsalar ham, kambag'al beva-becholarga, och-yalang'ochlarga yordam qo'lini cho'zmaydilar, ularning o'lgan-tirilgani bilan ishlari ham bo'lmaydi, parvo ham qilmaydilar degan ma'noda qo'llaniladi.

忠言逆耳 zhōng yán nì ěr راستی تلخ باشد *Rost gap quloqqa yoqmas; rost gap tuqqaningga ham yoqmas* (правда глаза колет).

Fors tilida “*rost gap achchiq bo'ladi*” deb berilsa, xitoy tilida esa “*samimiy so'z quloqqa yoqmas*” deb berilgan.

无风不起浪 wú fēng bù qǐ làng برخیزد دود از کنده *Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi* (нет дыма без огня).

Xitoy tilida “*Shamol bo'lmasa, to'lqin bo'lmas*” deb berilsa, fors tilida “*to'nka kuymasa, tutun bo'lmas*” deb berilgan.

人人都说自己的家乡好 rén rén dōu shuō zì jǐ de jiā xiāng hǎo *Hamma uchun o'z uyi yaxshi* است هر کسی نگوید که دوغمن تراش است *Har bir o'rdak o'z botqog'ini maqtaydi* (всяк кулик своё болото хвалит).

趁热打铁 chèn rè dǎ tiě است باید آهن گرم است *Temirni qizig'ida bos; tandirning qizig'ida non yop* (куй железо, пока горячо).

三思而后行 sān sī ér hòu xíng اول اندیشه انگهی گفتار *اول استشاره*; سه بار گز کن یک بار به بر; *Avval o'yla keyin so'yla; yetti o'lchab, bir kes* (сначала подумай, потом скажи; семь раз отмерь, один раз отрежь).

隔墙有耳 gé qiáng yǒu ěr دیوار موش دارد موش هم گوش دارد *Devorning ham qulog'i bor* (даже у стены есть уши).

Bu maqol xitoy, o'zbek, rus tillarida bir xil, fors tilida esa “*devorda sichqon bor, sichqonning ham qulog'i bor*” bor deb berilgan.

纸里包不住火 zhǐ lǐ bāo bú zhù huǒ مشك پنهان *سواری و رفتن دولا دولا نمیشود*; عشق و مشك *Dardni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi* (шила в мешке не утаишь).

同类不相残 tónglèi bù xiāng cán خرد از لگد خر رنجه نشود *Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimas* (ворон ворону глаз не выклюет).

Xitoy tilida “*bir guruhdagalar bir biriga hujum qilmas*”, fors tilida “*eshak eshakni tepib xafa qilmaydi*”, o'zbek va rus tillarida esa bir xildir.

Xalq og‘zaki ijodining ko‘pchilik janrlarida, jumladan, maqollarda xalq jamiyatidagi munosabatlar, hodisa va holatlarni soddaroq, oydinroq ifodalamoq maqsadida tabiatdagi o‘z xususiyatlari bilan shunga mos keladigan turli narsalar(hayvonlar, jismlar va h.k) lar obrazidan ustalik bilan foydalanadi. Ana shu narsalarning har birini timsol qilib olib, ular vositasida muayyan sifatlarga(xoh ijobiy, xoh salbiy) ega bo‘lgan kishilarning obrazini gavdalantiradi.

指桑骂槐 zhǐ sāng mà huái; 杀鸡骇猴 shā jī hài hóu; 训斥女儿, 给儿媳妇听 xùnchì nǚér, gěi érxiǔfū tīng شنو تو بشنو عروس تو دختر بتو میگویم عروس تو به ترسد; Qizim senga aytay, kelinim sen eshit (свекровь дочку бранит- невестке наука даёт).

Xitoy tilida “tutni ko‘rsatib, soforani so‘kmoq ; tovuqni so‘yib, maymunga ko‘rsatmoq; kelinni eshitsin deb, qiziga tanbeh bermoq”, fors tilida “o‘z bolasini qo‘shning ko‘z oldida urmoq; qizim senga aytay, kelinim sen eshit” deb berilgan.

心非铁石 xīn fēi tiě shí دلش سنگ نیست Yurak tosh emas (сердце не камень).

活到老学到老 huó dào lǎo xué dào lǎo قرن زندگی قرن آزمودی Beshikdan qabrgacha ilm izla (век живи-век учись).

不三不四 bù sān bú sì; 非驴非马 fēi lú fēi mǎ نه آب سرد و نه آتش سوزان Na u yoqlik, na bu yoqlik; na don, na samon (ни рыба, ни мясо).

Xitoy tilida: Na uch, na to‘rt; na eshak, na ot. Fors tilida: Na sovuq suv, na yonaytgan olov deb berilgan.

嘴甜手辣 zuǐ tián shǒu là بد بدرقه و خوش پیشواز و گندم نما; Kulib turib jonni olmoq (мягко стелет, да жёстко спать).

不入虎穴, 焉得虎子 bú rù hǔ xué, yān dé hǔ zǐ کسی که از گرگ بترسد گوسفند نگاه ندارد Chumchuqdan qo‘rqan tariq ektaydi; toqqa chiqmasang do‘lona qayda, jon kuydirmasang-jonona (волков бояться- в лес не ходить).

Xitoy tilida “yo‘lbarsning iniga kirmaguncha, yo‘lbarsning bolasini ushlab bo‘lmas”, fors tilida “bo‘ridan qo‘rqan, qo‘y boqolmas”.

山和山无法相会, 人与人总会相逢 shān hé shān wú fǎ xiāng huì, rén yǔ rén zǒng huì xiāng féng کوه بکوه نمیرسد آدم بآدم میرسد Tog‘ tog‘ bilan uchrashmaydi, odam odam bilan uchrashadi (Гора с горой не сходятся, а человек с человеком сойдутся).

百川归海 bǎi chuān guī hǎi; 百川会海 bǎi chuān huì hǎi قطره قطره جمع گردد و انگهی دریا Toma-toma ko‘l bo‘lur (капля за каплей – и собирается море).

金窝银窝, 不如自家草 jīn wō yín wō, bùrú zìjiā cǎo; 自家自乐, 休闲自得 zìjiā zìlè, xiūxián zì dé مورد در خانه خود حکم سلیمان دارد O‘z uyim o‘lan tushagim; uyg‘ur tilida: O‘z uyimning xushligi, put qo‘limning bo‘shlig‘i.

好心成了驴肝肺 hǎoxīn chéngle lúgānfèi; 恩将仇报 ēn jiāng chóu bào آدم ثواب كنم كباب
شدم Savobning tagi teshik.

Xitoy tilida “yaxshi niyatim eshakning jigar,o’pkasiga aylandi” yoki “yaxshilikka yomonlik”. Fors tilida “savob qilaman deb, kabob bo’ldim”.

Yaxshilik qilgan odamga, nodonligidan yomonlik qaytarilsa, shu paytdaaytiladi.


远亲不如近邻 yuǎn qīn bùrú jìn lín عزیزترندان دور خوشاوندان از نزدیک همسایگان uzoqdagi qarindoshdan, yaqindagi qo’shni yaxshi.

乌鸦的翅膀挡不住太阳的光 wūyādechibǎngdǎngbùzhùtàiyángdeguāng بوی مشک پنهان
نمیمانند *аромат мускуса не скроешь (шила в мешке не утаишь)*. Xitoy tilida: “Qarg’aning qanoti quyoshni yopa olmas”. Fors tilida: “Iporning hidini yashira olmaysan”. Bu maqolaning o’zbekcha muqobili “Oyni etak bilan yopib bo’lmas” rus tilida “солнце платком не закроешь”.

Xiyonat, jinoyat, ayb, gunoh qilib qo’ygan odam buni yashirishga har qancha urinmasin, baribir bir kunmas-bir kun oshkor bo’lmay qolmaydi, qo’lga tushib, jazosini tortadi degan ma’noda qo’llaniladi.

O’zbek tilida bu maqolaga yaqin bir qanchasi bor: “G’alvirda suv turmas; kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi; qing’ir ishning qiyig’i qirq yildan keyin ham chiqadi”. 成者王 侯败者贼 chéngzhěwánghóubàizhězéi یا سر میرود یا کلاه میاید

Xitoy tilida: “G’olib bo’lsang shahzoda bo’lasan, mag’lub bo’lsang o’g’ri”. Fors tilida: “Yo bosh ketadi, yo shapka tushadi”. O’zbek tilida: “Yo u yoqlik yo bu yoqlik bo’lmoq”. Rus tilida: “Или пан, или пропал”.



话中有话 huà zhōng yǒu huà; 言外之意 yán wài zhī yì; 弦外之音 xiánwàizhī yīn

زیر کاسه نیم کاسه ای است Kosa, kosaning tagida-nimkosa; Gapning tagida gap bor.

Bu maqola to’g’ridan-to’g’ri aytilmay, yashirib qolingana, bir gapni aytish bilan boshqa narsaga shama qilsa, parda ortida o’tirib noto’g’ri ishlarni bajarishga urinsa, shubhali ish qilib aldashga urinsa, xiyonat borligini taxmin qilganda qo’llaniladi.

XULOSA

Xullas, maqol va matallar insonlarni doimo o'ziga jalb qilib kelgan, ularni uzliksiz o'rganib, jamlab kelishgan. Tarixchi maqol va matallardan uzoq yurtlar va o'tmish zamonlar daragini izlasa, huquqshunoslar ularni hayot tarzidagi yozilmagan qonunlar, deb qaraydi. Etnograflar esa, o'z navbatida bu hikmatli so'z va iboralarda o'tmish zamonda yo'qolib ketgan rasm-rusm, urf-odat va udumlarning aksini izlaydi. Faylasuflar maqollar orqali xalq tafakkurni tushunishga intiladi. Tilshunos olimlar bu jamlangan qisqa, ammo chuqur va keng ma'noni o'z ichiga olgan ifodali iboralarni, inson nutqiga xos xususiyat va qoidalarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega ma'lumotlar to'plami, deb qaraydilar.

Ayniqsa maqol va matallar yozuvchi va san'at arboblarda, san'atkorlarda alohida qiziqish o'yg'otadi, chunki bunday shoirana, ta'sirchan iboralar xalqning o'ziga xos badiiy qarashlarini tushunishga yaqindan yordam beradi. Matallar qisqa bo'lishiga qaramasdan turli hayotiy voqealar, tanbeh, nasihatlar, insonga mansub yaxshi fazilat yoki nuqsonlar to'g'risida fikrlarni dadillik bilan o'z ichiga olganligi barchani hayratda soladi. Shuning uchun ham har bir xalqda maqol va matallar alohida o'z o'rniga ega bo'lib, ularni sevib, kundalik turmushimizda nutqimizni yanada shirali va ifodali qilib berishda qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Очилов О. 李雅梅 Ўзбекча-хитойча, хитойча- ўзбекча мақол, матал ва иборалар луғати. Пекин, 2011. 258-бет.
2. Персидские пословицы и поговорки. "Наука" Москва, 1973. 613 стр.
3. Персидско-русский словарь. "Русский язык". Москва, 1983. 517стр.
4. 曾延生 商务印书馆. 北京 2005 年. 21 页
5. 李维颐. 汉俄分类常用词话. 天津大学出版社 1998 年 6 月. 503 页
6. 新华成语词典. 北京, 2015 年. 974 页
7. www.google.com